



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION TA'LIMNI QO'LLASHNING ZARURIYATI

Qarshiboyeva X.K.

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika
instituti katta o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: didaktik o'yinlar, innovatsion texnologiyalarni qo'llash, metod, texnologiya, boshlang'ich ta'lim.

Ключевые слова: дидактические игры, использование инновационных технологий, метод, технология, начальное образование.

Key words: didactic games, use of innovative technologies, method, technology, primary education.

Kirish. Respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi xalq ta'limi sohasida ham chuqur va izchil islohotlar olib borilmoqda. Bundan asosiy maqsad – maktab faoliyatini demokratlashtirish, uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, o'quv-tarbiya ishlari jarayonining mazmunini, shaklini hamda yangilash evaziga samaradorligini oshirishga erishishdan iborat. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashning muhim omillaridan biri – bu, ta'lim va tarbiya jarayonini davr talablari asosida olib borish, uzviylik tamoyillariga asoslanib, innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalangan holda darslar tashkil etishdir. Pedagogik texnologiya o'qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan o'qitish yoki tarbiyalashning vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir.

Adabiyotlar sharhi. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni tinglovchidan ishtirokchiga aylantirmoq nihoyat muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i zarur. Biz, o'qituvchilar darslarda o'quvchilarni erkin ishtirokchiga aytantira olsakkina, o'z maqsadimizga erishgan bo'lamiz. O'qituvchi bir xil yoki bir-biriga o'xshash usullarda dars o'tish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga



olishni unutmash kerak. Ularni oddiy, oson va vaqtni kam oladigan turlaridan boshlab, didaktik o'yinlar o'tkazishdan oldin asta-sekin murakkablashtirib borish yaxshi natija beradi. Bunday ish tutish, bir tomondan, bolalarning dunyoqarash va ongini kengaytirsa, boshqa tomondan, ularning bayon etish qobiliyatini kuchaytiradi, ijodiy ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'qituvchi bunday interfaol metodlarni mavzu asosida ma'lum maqsaddan kelib chiqqan holda tanlay olishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari har bir sinfda bir-biridan keskin farq qiladi. 1-sinf o'quvchilarining diqqati turg'un bo'lmasligi bois ular o'yinga ko'proq moyillik bildirishadi. Shu sababli dars davomida didaktik o'yinlardan ko'proq foydalanishga to'g'ri keladi.

1. Uzoq umr ko'ruvchi daraxt qaysi?



2. Qaysi daraxt meva beradi?






3. Jonli predmetni toping?



4. Qaysi hayvon tez chopa oladi? va shu kabi savollar beradi



Natijalar. Boshlang'ich sinflarda kompyuterli o'qitish – predmetlar muhitini elementlarini o'zgartiruvchi va boyituvchi sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari aynan bunday yoshda bolaning aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechadi, uning intellektual salohiyatini rivojlanishi uchun fundament yaratiladi. O'quv jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi, jumladan:

1. o'quv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga o'quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi;
2. mustaqil ishlash va o'zini-o'zi nazorat qilish ko'nikmasi rivojlanadi;
3. darsning samaradorligini va har bir o'quvchining o'zlashtirishini ta'minlaydi;
4. har bir o'quvchining fikrlashini, sezish (chuvstva), intilishlarini (volya), nrvstvennyiy tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy optimal rivojlanishga erishiladi;
5. sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi ta'minlanadi.



Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin.

Kompyuterlarning o'quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagoglar hayotida misli ko'rilmagan darajada o'qitishning yangi turlarini, shakllarini keltirib chiqardi. Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ikkita asosiy masalani yechish bilan bog'liq: bolalarni yangi texnikaviy vositalardan foydalanishga o'rgatish va o'quvchilarning o'qish va o'qishdan tashqari faoliyatida yangi imkoniyatlarini ochish va takomillashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Darslarda axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagoglar oldiga juda katta muammolarni keltirib chiqardi. Chunonchi, zamonaviy pedagog kompyuterdan foydalanishni bilishi, kompyuter yordamida o'qitish vositalaridan foydalana olish va uni o'quv jarayoniga tadbiiq qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi, o'z bilimini kompyuterli o'qitish bo'yicha doimo takomillashtirib borishi va hakoza zarur.

Xulosa va munozara. Xulosa qilib aytganda, yuqorida misol tarzida keltirilgan didaktik o'yinlar barcha qonun-qoidalar va prinsipial talablarga rioya qilib o'tkazilsa, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishga samarali ta'sir qilishi, shubhasizdir.

Adabiyotlar:

1. Alifbe" umumiy o'rta ta'lim maktablaring 1-sinflari uchun darslik, qayta ishlangan 17- nashr, "O'qituvchi", 2019 y.
2. Bobomurodova A.Ya "Ona tili ta'limi jarayonida o'yin topshiriqlardan foydalanish". dissertatsiya. 2016 y.
3. Ishmuhamedov R. Abdukodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2018. – 180 b.
4. Gaybullaev N.G., I. Dyrchenko. O'quvchilarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirish. T.: "O'qituvchi", 2018 yil
5. Habib R.A. O'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirish. T.: «O'qituvchi», 2011
6. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: Qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2014. – B. 104.

РЕЗЮМЕ

Mazkur ilmiy maqolada boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlardan samarali foydalanish metodologiyasi, didaktik o'yinlarning ta'limdagi ahamiyati hamda innovatsion texnologiyalarning darslardagi roli muhokama etiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной научной статье рассматривается методика эффективного использования инновационных методов в начальном образовании, значение дидактических игр в обучении, а также роль инновационных технологий на занятиях.

SUMMARY

This scientific article discusses the methodology of effective use of innovative methods in primary education, the importance of didactic games in education, and the role of innovative technologies in classes.